

ADABIY-BADIIY ASARLARDA KONFLIKTNING IFODALANISHI

Elmurodov Azizjon G‘ayratovich

CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti magistranti

azizjonelmurodovuchun@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20438850>

ANNOTATSIYA: Ushbu matnda adabiy-badiiy asarlarda konflikt tushunchasining mohiyati, uning turlari hamda modernistik adabiyotdagi o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Unda ichki va tashqi konfliktlarning farqlari, psixologik, ijtimoiy, ideologik hamda modernistik konflikt shakllarining badiiy asar strukturasiidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, konfliktning syujet, kompozitsiya, obraz yaratish va badiiy ta’sirchanlikni oshirishdagi roli asoslab beriladi. Modernistik asarlarda esa konfliktning fragmentlik, vaqt va makon buzilishi, ichki ong oqimi hamda yechimsizlik kabi xususiyatlar orqali ifodalanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Mini-romanlarda konfliktning siqilgan va markazlashgan shaklda namoyon bo‘lishi ham tahlil etiladi.

KALIT SO‘ZLAR: Konflikt, adabiyot, badiiy asar, syujet, kompozitsiya, obraz, psixologik konflikt, ichki konflikt, tashqi konflikt, ijtimoiy konflikt, ideologik konflikt, modernizm, fragmentlik, ong oqimi, yechimsizlik, mini-roman, antiteza, kulminatsiya, begonalashuv (alienatsiya), badiiy tasvir.

ИЗОБРАЖЕНИЕ КОНФЛИКТА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Элмуродов Азизжон Г айратович

магистрант факультета гуманитарных наук ЧДПУ

azizjonelmurodovuchun@gmail.com

АННОТАЦИЯ: В данном тексте анализируется сущность понятия конфликта в художественных литературных произведениях, его виды, а также особенности его проявления в модернистской литературе. Рассматриваются различия между внутренним и внешним конфликтом, раскрывается роль психологического, социального, идеологического и модернистского конфликтов в структуре художественного произведения. Также обосновывается значение конфликта в развитии сюжета, композиции, создании образов и усилении художественной выразительности. Показано, что в модернистских произведениях конфликт выражается через такие особенности, как фрагментарность, нарушение времени и пространства, поток сознания и незавершённость. Отдельно анализируется проявление конфликта в мини-романах в виде сжатой и концентрированной формы.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Конфликт, литература, художественное произведение, сюжет, композиция, образ, психологический конфликт, внутренний конфликт, внешний конфликт, социальный конфликт, идеологический конфликт, модернизм, фрагментарность, поток сознания, незавершённость, мини-роман, антитеза, кульминация, отчуждение (alienation), художественное изображение.

THE EXPRESSION OF CONFLICT IN LITERARY AND ARTISTIC WORKS

Elmurodov Azizjon Gayratovich

Master's student, Faculty of Humanities, CHDPU

azizjonelmurodovuchun@gmail.com

ANNOTATION: This text analyzes the essence of the concept of conflict in literary and artistic works, its types, and the specific features of its manifestation in modernist literature. It examines the differences between internal and external conflict and explains the role of psychological, social, ideological, and modernist forms of conflict in the structure of a literary work. It also substantiates the importance of conflict in the development of plot, composition, character creation, and artistic expressiveness. In modernist works, conflict is shown through features such as fragmentation, distortion of time and space, stream of consciousness, and open-endedness. The manifestation of conflict in mini-novels as a condensed and concentrated form is also analyzed.

KEYWORDS: Conflict, literature, artistic work, plot, composition, image, psychological conflict, internal conflict, external conflict, social conflict, ideological conflict, modernism, fragmentation, stream of consciousness, open-endedness, mini-novel, antithesis, climax, alienation, artistic representation.

Kirish (Introduction). Adabiy-badiiy asarlarni yaratishda konfliktning ahamiyati kattadir. O'zbek adabiyotida mustaqillik davridan keyin yaratilgan asarlarda konflikt masalasiga bir qancha e'tiborli jihatlar qaratila boshlandi. Shu bilan birgalikda konfliktning psixologiya bilan bevosita bog'liqligi asarlarning ta'sirchanligi va izchilligini oshirishda katta yordam beradi.

Konflikt tushunchasi adabiyot va adabiyotshunoslik ilmida ziddiyatli holatni yuzaga keltirib, yaratilgan asarning badiiyligi va ifodaviyligini harakatlantiruvchi kuch, ya'ni obrazlar o'rtasida yuzaga keluvchi, syujet rivojini ta'minlovchi chiziq sifatida qaraladi. Personajlarning ochib berilishi, g'oyaning mazmun va shakl orqali ifodalanishida roman janrida konflikt katta ahamiyat kasb etadi.

Metodlar (Methods / Methodology). Konfliktning bir qancha turlari mavjud bo'lib, ular yuzaga kelish sharoitlari va badiiy ifoda usullariga ko'ra turlicha namoyon bo'ladi. Hermenevtik yondashuv nuqtayi nazaridan konflikt asar mazmunini talqin qilishning asosiy kaliti bo'lib, o'quvchining matnni anglash jarayonida ma'no qatlamlarini ochib beradi. Ya'ni konflikt shaxslar o'rtasidagi ziddiyat bilangina emas, balki matnning ichki ma'nosini tushunish jarayonida yuzaga keladigan interpretatsion qarama-qarshiliklar orqali ham ifodalanadi.

Semiotik jihatdan qaralganda esa konflikt belgi va ramzlar tizimi orqali ifodalanadi. Unda shaxslar, g'oyalar va jamiyat qatlamlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar turli badiiy belgilar, ramziy obrazlar va kodlangan ma'nolar vositasida uzatiladi. *“Romanlarda konflikt obrazlar va personajlarning emotsional holatlarini ifodalovchi semiotik birliklar orqali namoyon bo'lib, matn ichidagi har bir detal ma'lum bir ma'no yukini tashuvchi belgi sifatida xizmat qiladi”¹.*

Intertekstuallik nuqtayi nazaridan esa konflikt boshqa matnlar bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Ya'ni asardagi ziddiyatlar avval yaratilgan adabiy an'analar, mifologik syujetlar yoki boshqa badiiy matnlardagi konflikt modellari bilan dialogga kirishadi. Shu orqali romanlardagi konfliktlar nafaqat ichki matn doirasida, balki keng madaniy va adabiy kontekstda ham mazmun kasb etadi.

Natijalar (Results). Ichki konflikt asosan romanlarda inson xarakteri, uning vatan oldidagi burchi, hissiyotlari, aqli, ichki dunyosi, sezgilari kabi tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi. Bu ichki konflikt deb atalib, shaxsning ichida yuzaga keladi. Tashqi konflikt esa shaxs va shaxs o'rtasidagi,

¹ Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2002.

ya'ni bir qahramonning boshqa qahramonlar bilan to'qnashuvi, qarama-qarshiligi natijasida yuzaga keluvchi holat sifatida shakllanadi.

Shaxs va jamiyat o'rtasidagi konflikt ham tashqi konfliktga misol bo'la oladi. Bunda insoniyat hayotidagi normalar va ularning buzilishi, hayot prinsiplari, qonuniyatlar, milliy an'analar va tushunchalar o'rtasidagi kurash, ya'ni bir obrazning boshqa bir zamonaviy tipdagi obraz bilan qarama-qarshi qo'yilishi o'zbek romanchiligida o'ziga xos an'anaga aylangan. Tashqi konfliktning yana bir jihati shaxs va tabiat o'rtasidagi konfliktidir. *“Tabiiy sharoit va stixiyalarga qarshi kurash asosida ifodalanadigan holatlar shaxs va tabiat konflikti bilan bog'lanadi. Bunda tabiat hodisalari bilan bog'liq voqealar inson taqdiriga ko'chirilishi ham uchraydi”*². Ijtimoiy konflikt esa jamiyatdagi qatlamlar o'rtasidagi umumiylik, sinfiylik va mafkuraviy qadriyatlar to'qnashuvi bilan bog'liqdir.

O'zbek adabiyotida yaratilgan romanlarda tarixiy jarayonlarni yoritish muhim rol o'ynaydi, bu esa ijtimoiylik bilan bog'liqdir. Chunki ijtimoiy konflikt katta davr va muhitni qamrab olish xususiyatiga ega. Shu bilan birga falsafiy qarashlar va dunyoqarashlarning o'zaro ziddiyatli tarzda ifodalanishi ham ijtimoiy konflikt doirasida amalga oshiriladi. Odatda epik asarlarning tasvir muhiti ijtimoiy konflikt orqali shakllanadi. Bunda ma'lum sinflar - boylar va kambag'allar, yaxshi va yomon insonlar, shuningdek turli guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar vositasida jamiyatdagi mafkuraviy qadriyatlar aks ettiriladi.

G'oyaviy, ya'ni ideologik konflikt. Bunda dunyoqarashlar, insoniy tushunchalar va pozitsiyalar o'rtasidagi qarama-qarshilik adabiy-badiiy asarlarda qahramonlar o'rtasida yuzaga keladi. Bu ko'proq intellektual romanlarda uchraydigan xususiyat sifatida qaraladi. Ideologik konflikt jamiyatdagi insonlarning bir g'oya yoki muayyan shaxsiy pozitsiya atrofida shakllanishi bilan bog'liq tushunchadir. Bunda dunyoqarashlarning turlicha ko'rinishlari, asosan, erkaklar va ayollar o'rtasidagi motivlar orqali ham ifodalanadi. Bu turda g'oyaviy pozitsiyani ifodalash muallifning so'z qo'llash mahoratiga va jamiyatning muayyan qoidalari hamda muhitini aks ettirishda o'ziga xos vosita, ko'prik vazifasini bajaradi.

Romanda konfliktning badiiy ahamiyati asar strukturasi shakllantirish bilan bog'liqdir. Ya'ni voqealar rivojining syujet bilan, syujetning kompozitsiya bilan, kompozitsiyaning konflikt bilan, konfliktning esa tugun bilan bog'liq xususiyatlari aynan shu jihatlarda yaqqol ko'rinadi. Syujetni harakatga keltirishda voqealar rivojini ketma-ketlikda konflikt asosida ifodalash roman yaratishning o'ziga xos prinsiplardan biridir. *“Obraz yaratishda personajlarning bir-biriga o'xshamasligi, ziddiyatli jarayonlarda insonlarga xos xarakterlarning namoyon bo'lishi ham psixologik jihatdan konflikt bilan bog'liqdir”*³. G'oyani ifodalashda yozuvchi fikrining konflikt orqali berilishi emotsional ta'sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Natijada kitobxonlarda voqealar rivojiga nisbatan qiziqish, hamdardlik, kulgu, quvonch kabi hissiyotlar aynan konflikt orqali yuzaga keladi.

Badiiy kulminatsiyani shakllantirishda keskin nuqtalar bilan ishlash ham konfliktli holatlar hisoblanadi. Ya'ni asarda qahramonlarning vafot etishi yoki mag'lub bo'lishi kabi holatlar shular jumlasidandir. Konfliktni yuzaga chiqaruvchi asosiy omillardan biri dialog va monologdir. Qahramonlarning turli tiplar yoki davr vakillari sifatida o'zaro muloqoti dialog asosida kechib, konfliktni yuzaga chiqarishi mumkin. Qahramonlar o'rtasidagi ochiq, ifodali qarama-qarshiliklar yoki ichki monologlar ham konfliktni kuchaytiradi. Monolog ko'pincha psixologik jihatdan o'z-o'ziga murojaat, hayotiy xatti-harakatlarni tahlil qilish kabi holatlarda namoyon bo'ladi.

² Rahimjonov N. XX asr o'zbek poemasining rivojlanish xususiyatlari. - Toshkent: 1990.

³ Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Toshkent: “Sharq”, 2004, 650-bet

Qarshilantirish, ya'ni antiteza ham konfliktning muhim vositalaridan biridir. Bunda obrazlar, g'oyalar yoki holatlar bir-biriga qarshi qo'yiladi. Masalan, adolat va zulm kurashi, boy va kambag'al qarama-qarshiligi shular jumlasidandir. Syujet kompozitsiyasi esa voqealar ketma-ketligi — rivojlanish, tugun, kulminatsiya va yechim kabi bosqichlarni muammolar asosida yoritadi.

Portret va psixologik tasvir ham konflikt bilan bevosita bog'liqdir. Qahramonning ichki holati, psixologik jarayonlardagi ishtiroki, mimika va xatti-harakatlar orqali konflikt ochib beriladi. Ayrim detallar va ramziy obrazlar ham konfliktga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, qorong'ulik orqali berilgan tasvirlar inson ruhiyatidagi bosimni ifodalashi mumkin. Yopiq eshiklar yoki achchiq choy kabi detallar ham konfliktning chuqur ma'nolarini ifodalovchi ramziy vositalar sifatida xizmat qiladi.

Muallif nutqi, ya'ni “men”dan tashqari ifodalanadigan fikrlar ham konfliktni yuzaga keltiradi. Chunki muallif obrazlar orqali ifodalayotgan fikrlar va ularning o'zaro ziddiyati asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. *“Modernistik asarlarda konflikt tushunchasi asosan XIX–XX asrlarga oid adabiy hodisa sifatida qaraladi. Bunda inson ongidagi turli holatlar ichki kechinmalar orqali tasvirlana boshlaydi”*⁴. Modernistik konfliktning asosiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi.

Dastlab ichki psixologik ustuvorlik muhim o'rin egallaydi. Bu, asosan, inson ongidagi tasavvurlar, xotira, ong osti sezgilari, muhabbat tushunchalari va irratsional holatlar darajasida yuzaga kelishi bilan izohlanadi. Fragmentlik tushunchasi esa voqealarning ketma-ket emas, balki turli tarkibiy qismlarga bo'lingan holda ifodalanishida namoyon bo'ladi.

Vaqt va makonning buzilishi ham modernistik konfliktga xos jihatlardan biridir. Bunda konflikt real hayotdagi vaqt chizig'iga emas, balki subyektiv ong doirasida rivojlanadi. Yechimsizlik holati esa ko'plab jahon adabiyoti namunalarida muammolarning yakuniy yechimga ega bo'lmasligi bilan ifodalanadi. Ayrim hikoya, roman va nasriy asarlar yakunining ochiq yoki salbiy tarzda tugashi ham konfliktning yechilmasdan qolishini ko'rsatadi.

Xulosa (Conclusion). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Shaxs va ong o'rtasidagi konflikt o'z-o'ziga murojaat va ichki mushohada bilan bog'liqdir. Shaxs va begonalashgan dunyo o'rtasidagi konflikt esa ijtimoiy begonalashuv - alienatsiya hodisasi bilan izohlanadi. O'zbek romanchiligida ham chet elda voyaga yetgan, keyinchalik vatanga qaytgan qahramonlar obrazi orqali bu holat ko'p tasvirlangan. Haqiqat va illyuziya konflikti ham muhim bo'lib, bunda voqelikni anglash jarayonida yuzaga keladigan ichki ziddiyatlar aks etadi.

Modernistik konflikt klassik modeldagi an'anaviy qarama-qarshiliklarni ham qayta talqin qiladi. G'alaba va mag'lubiyat, yaxshilik va yomonlik kabi tushunchalar endi faqat tashqi kurash emas, balki ichki psixologik ziddiyatlar orqali ham ifodalanadi.

Mini-romanlarda konfliktning siqilgan, ya'ni konsentratsiyalashgan shakli kuzatiladi. Bunda konflikt tez boshlanib, tez rivojlanadi. Asarda bitta markaziy ziddiyat voqealar rivojini birlashtirib turadi. O'zbek adabiyotida bunday asarlarda ko'pincha qasos motivi yoki avloddan avlodga o'tuvchi oilaviy nizolar asosiy konfliktni tashkil etadi. Shuningdek, detal va epizodlarning qisqaligi, ularning konfliktni rivojlantirishga xizmat qilishi ham muhimdir. Tez va kutilmagan kulminatsiya, dramatik cho'qqining qisqa vaqt ichida yuzaga kelishi mini-romanlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Darslik. -T.: O'zbekiston, 2002.

⁴ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. -T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.

2. Rahimjonov N. XX asr o‘zbek poemasining rivojlanish xususiyatlari.- Toshkent: 1990.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. Toshkent: “Sharq”, 2004, 650-bet
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Darslik. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.